

ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ  
ОЛИЙ ВА ЎРТА МАХСУС ТАЪЛИМ ВАЗИРЛИГИ

Рўйхатга олинди:

№ 62-103

2017 йил «18» 08

Олий ва ўрта махсус таълим вазирлиги

2017 йил «24» 08



ДИНШУНОСЛИК

ФАН ДАСТУРИ

(барча бакалавриат таълим йўналишлари учун)

ТОШКЕНТ – 2017

Ўзбекистон Республикаси Олий ва ўрта махсус таълим вазирлигининг 2017 йил «24» 08 даги 603-сонли бўйруғининг 1 -илюаси билан фан дастури рўйхати тасдикланган.

Фаннинг ўкув дастури Олий ва ўрта махсус, касб-хунар таълими йўналишлари бўйича Ўкув-услубий бирлашмалар фаолиятини Мувофиқлаштирувчи Кенгашининг 2017 йил «18» 08 даги 4 -сонли баённомаси билан маъқулланган.

Фан дастури Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Махкамаси хузуридаги Тошкент ислом университетида ишлаб чикилди.

**Тузувчилар:**

Д.Муратов	ТИУ, «Исломшунослик» кафедраси мудири, т.ф.н.
М.Алимова	ТИУ, «Диншунослик ва жаҳон динларини киёсий ўрганиш ЮНЕСКО» кафедраси катта ўқитувчиси, т.ф.н.
Ҳ.Юлдашхўжаев	ТИУ, «Диншунослик ва жаҳон динларини киёсий ўрганиш ЮНЕСКО» кафедраси докторанти, т.ф.н.
Ж.Каримов	ТИУ, «Диншунослик ва жаҳон динларини киёсий ўрганиш ЮНЕСКО» кафедраси катта ўқитувчиси

**Такризчилар:**

А.Ҳасанов	ТИУ, «Тарих» кафедраси профессори, т.ф.д.
М.Исхоков	ТошДШИ «Марказий Осиё халклари тарихи» кафедраси профессори, т.ф.д.

Фаннинг ўкув дастури Тошкент ислом университети Ўкув-услубий кенгашида кўриб чикилган ва тавсия килинган (2017 йил «7» авгу даги «17» -сонли баённома).

## **I. O‘quv fanining dolzarbligi va oliy kasbiy ta’limdagi o‘rni**

«Dinshunoslik» fani Gumanitar va ijtimoiy-iqtisodiy fanlar blokiga kiritilgan kurs hisoblanib, 1-kursda o‘qitilishi maqsadga muvofiq. «Dinshunoslik» fani gumanitar fanlar turkumiga kiradi va barcha dinshunoslik bo‘limgan ta’lim yo‘nalishlarida ham o‘qitiladi. Mazkur fan boshqa ijtimoiy fanlarning nazariy va uslubiy asosini tashkil qilib, o‘z rivojida aniq yo‘nalishdagi ijtimoiy fanlar uchun zamin bo‘lib xizmat qiladi.

## **II. O‘quv fanining maqsadi va vazifasi**

Fanni o‘qitishdan maqsad – talabalarga milliy va diniy qadriyatlarning tarixan mushtarakligi, ularning umuminsoniy qadriyatlar ila uyg‘unligini tushuntirish, ularda diniy bag‘rikenglik madaniyatini, dinga nisbatan to‘g‘ri yondashuvini shakllantirish va jamiyat uchun yuksak ma’naviyatli kadrlarni tarbiyalashdan iborat.

Fanning vazifasi – talabalarga hozirgi davrdagi dinlarning ma’lum xalq hayotida tutgan o‘rni haqida umumiylazariy tushunchalar berish, ularning davlat va din munosabatlari, dinlararo bag‘rikenglik g‘oyasi va madaniyati to‘g‘risidagi tasavvurlarini boyitish; din va diniy qadriyatlarning talqin etilishi va bugungi kundagi ahamiyatini o‘rgatish; globallashuv jaryonida diniy sohada kechayotgan tendenitsiyalarni yoritish, yoshlarda turli zararli diniy sekta va oqimlarning buzg‘unchi g‘oyalariiga qarshi immunitetni shakllantirish.

Fan bo‘yicha talabaning bilim, ko‘nikma va malakalariga quyidagi talablar qo‘yiladi. **Talaba:**

- davlat va din munosabati, Markaziy Osiyoda tarqalgan dinlar tarixi, ta’limoti, muqaddas manbalari, yo‘nalishlari, jahonda mavjud bo‘lgan dinlarning mushtarak xususiyatlari, dinlardagi oqimlar va mazhablar, dunyoning konfessional xaritasi, din va qonun o‘zaro munosabatlari haqida ***tasavvurga ega bo‘lishi***;

- missionerlik, prozeletizm va diniy ekstremizmning jamiyat hayotiga tahdid solishi hamda salbiy ta’siri va oqibatlari; dinlararo bag‘rikenglik tamoyillariga amal qilish, dinniing mohiyati ezgulikdan iborat ekanini anglash, dinniing ijtimoiy taraqqiyot bilan bevosita bog‘liqligini tushunib etish; din va diniy qadriyatlarning inson ma’naviy hayotida tutgan o‘rnini his etishni ***bilishi va ulardan foydalana olishi***;

- dunyoviy va diniy ilmlarning jamiyat taraqqiyotiga ta’sirini anglash, ularga nisbatan o‘zining mustaqil fikrini bildirish; din niqobi ostidagi turli buzg‘unchi g‘oyalarga qarshi immunitetini shakllantirib borish, ularning yovuz niyatlariga o‘zining erkin va xolis munosabatini bildirish ***ko‘nikmalariga ega bo‘lishi kerak***.

### **III. Asosiy nazariy qism (ma’ruza mashg‘ulotlari)**

#### **1-mavzu. Dinshunoslik faniga kirish**

Dinshunoslik fanining maqsad va vazifalari. Fanning falsafa, tarix, psixologiya, sotsiologiya, antropologiya, arxeologiya kabi fanlar bilan bog‘liqligi. Din va dinshunoslik atamalarining ta’rifi. Dinshunoslik fanining vujudga kelishi va tadrijiy taraqqiyoti. Dinlar tarixi Sharq ilmlarining uzviy bo‘lagi sifatida. Dinlar tarixini o‘rganishda Sharq allomalarining yondashuvlari. Abu Rayhon Beruniy, Ibn Hazm Andalusiy, Abdulkarim Shahristoniy va Abu Mansur Bag‘dodiy larning asarlarida dinshunoslik asoslari. G‘arb dinshunosligining o‘ziga xos jihatlari. Dirlarni tasniflashda G‘arb olimlarining qarashlari. Jahonning ilg‘or ta’lim maskanlarida dinlar tarixini o‘rganish va o‘qitish tajribalari.

#### **2-mavzu. O‘zbekistonda davlatning din va diniy tashkilotlar bilan munosabati**

E’tiqod tushunchasi. O‘rta Osiyo hududida din va diniy munosabatlari shakllanishi. O‘zbekistonda davlat va din munosabatlari. An’anaviy muslimon jamiyatida diniylik va dunyoviylik muammosi. Dunyoviylik va diniylik uyg‘unligini ta’minalash. O‘zbekistonning dunyoviy rivojlanish yo‘li. Din sohasidagi davlat siyosati. Vijdon erkinligining huquqiy asoslari. O‘zbekistonda faoliyat ko‘rsatayotgan diniy konfessiya va tashkilotlar.

#### **3-mavzu. Markaziy Osiyo dirlari**

Markaziy Osiyo dirlari va e’tiqodlari manbalarining tarixiy jihatlari. Dinning ilk shakllari. Shomonlik. Shomonlik amaliyotida ruhlar bilan aloqaning o‘rni. Shomonlik elementlarining bugungi kundagi ko‘rinishlari. Mahalliy diniy kultlar va tasavvurlar. Tangrichilik. Turkiy xalqlar diniy tasavvurlari. Tangri. Umay. Erklig. Zardushtiylik shakllangan tarixiy sharoit. Zardusht – Mazda YAsna dini payg‘ambari. Zardushtiylikning teologik tizimi. Moniylik. Moniy ta’limoti va uning tarqalishi. Yahudiylarning O‘rta Osiyoga kirib kelishi. Buxoro yahudiylari jamoasi. Markaziy Osiyoda buddaviylik. Markaziy Osiyoga xristianlikning kirib kelishi. Milliy taraqqiyot va islom.

#### **4-mavzu. Islom ta’limoti asoslari**

Aqida. Kalom ilmi. Moturidiylik va ash’ariylik. Aqida ilmining maqsadi. Imon. Allohga, farishtalarga, kitoblarga, payg‘ambarlariga, oxirat kuniga, yaxshilik va yomonlik Allohdan ekaniga imon keltirish. Shirk. Kufr. Qiymat. Jannat va do‘zax. Mo‘jiza va karomat. Kalom ilmini o‘rganuvchi manbalar. Qur’oni karim va umuminsoniy g‘oyalar.

## **5-mavzu. Islomdagi mazhablar va yo‘nalishlar**

Musulmonlar orasidagi ixtiloflar. Sunniylik. Xorijiylik. Shialik. Mo‘taziliylik. Qadariya, jabariya va mushabbihalar. Islomdagi oqim va yo‘nalishlarning hozirgi kundagi ko‘rinishlari va ularning islam birligiga tahdidi.

Mazhablarning paydo bo‘lishi: hanafiylik, molikiylik, shofeiylik va hanbaliylik. Hanafiylik mo‘tadil mazhab. Ijtihod, fatvo masalalari. Mazhabga ergashish. Mazhablar orasidagi farqlar. Mazhabsizlik.

## **6-mavzu. Missionerlik va prozelitizm: tarix va bugun, targ‘ibot usullari**

Missionerlik va prozelitizmning mazmun-mohiyati. Zamonaviy missionerlik uyushmalari. Missionerlik faoliyatida ijtimoiy tabaqalar bilan ishlash strategiyasi. Missionerlik faoliyatlarini amalga oshirishning moliyaviy manbalari. Missionerlik: mintaqaviy xususiyatlar. Diniy sektalar va ular faoliyatining oqibatlari. Missionerlikning milliy hayotga tahdidi. Missionerlikka qarshi kurashning huquqiy-amaliy asoslari.

## **7-mavzu. Diniy ekstremizm va terrorizm: mafkura va amaliyot, qarshi kurash strategiyasi**

Mutaassiblik, ekstremizm, aqidaparastlik, fundamentalizm, terrorizm, xalqaro terrorizm tushunchalarining mazmun-mohiyati. Diniy ekstremizm: tarix va voqelik. Terrorizmning davlatlar taraqqiyotiga tahdidi, millatlararo munosabatlar va diniy bag‘rikenglikka tahdidi. Dunyo bo‘yicha amalga oshirilgan yirik terrorchilik amaliyotlari. Diniy ekstremizm va terrorizmning moliyaviy manbalari. Diniy ekstremizm va terrorizmga qarshi kurash. O‘zbekiston Respublikasida diniy ekstremizm va terrorizm xavfini oldini olishning huquqiy asoslari. “Jaholatga qarshi ma’rifat” konsepsiysi.

## **8-mavzu. Yangi diniy harakatlar va sektalar**

«Yangi diniy harakatlar» tushunchasining mazmun-mohiyati. YADH ilgari surayotgan g‘oyalar. Universalizm va kosmopolitizm. YADH liderlari. Liderlar an‘anaviy diniy qadriyatlarga qarshi tashviqot ishlari. YADHlarning noqonuniy faoliyatlari. Protestantlarning «ikkilamchi» birlashmalari. Soxta xristian harakatlar. Krishnani anglash jamiyati. Aum-Sinrekyo. Nyu Eydj harakati. Islam dini doirasida yuzaga kelgan yangi diniy harakat va oqimlar. O‘zbekiston Respublikada faoliyati aniqlangan norasmiy diniy jamoalar. «Ma’rifatchilar». «Shohidiylar». «Baxshillochilar».

## **9-mavzu. Kibermakonda din omili**

Kibermakon tushunchasi. Kibermakon va jamiyat. Kibermakon va din. Ijtimoiy tarmoqlar tahdidlari. Ijtimoiy tarmoqlarning yoshlarga ta'siri. Kiberterrorchilik. Elektron dasturlar tahdidlari. Virtual o'yinlarning zararlari. Axborot asri tahlikalari. Internet tarmog'idagi axborot urushi. Global tarmoqdagi g'oyaviy xurujlar oldini olish. Barkamol avlodni mafkuraviy xurujlardan himoya qilishda milliy g'oyaning o'rni.

#### **IV. Amaliy mashg'ulotlar bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar**

Amaliy mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

1. Dinshunoslik faniga kirish.
2. Davlat va din munosabatlari.
3. Vijdon erkinligining xalqaro me'yoriy-huquqiy asoslari.
4. Dinning ijtimoiy-ma'naviy hayotdagi o'rni.
5. Dunyoning konfessional manzarasi.
6. Dunyo xalqlari madaniyatida dinning roli.
7. Markaziy Osiyo xalqlari dinlari.
8. Dinlardagi muqaddas manbalar.
9. Islom ta'limoti asoslari.
10. Islomdagi mazhablar va yo'nalishlar.
11. Tasavvuf: tarix va voqelik.
12. Islom manbalarida diniy aqidaparastlikka munosabat.
13. O'zbekistondagi diniy tashkilotlar va konfessiyalararo muloqot.
14. Missionerlik va prozelitizm: tarix va bugun, targ'ibot usullari.
15. Diniy ekstremizm va terrorizm: mafkura va amaliyot, qarshi kurash strategiyasi.
16. Yangi diniy harakatlar va sektalar.
17. Kibermakonda din omili.
18. O'zbekistonda mustaqillik yillarda din sohasida amalga oshirilgan islohotlar.

Amaliy mashg'ulotlar multimedia qurulmalari bilan jihozlangan auditoriyada bir akademik guruhg'a bir o'qituvchi tomonidan o'tkazilishi lozim. Mashg'ulotlar faol va interaktiv usullar yordamida o'tilishi, mos ravishda munosib pedagogik va axborot texnologiyalar qo'llanilishi maqsadga muvofiq.

#### **V. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar**

Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:

1. Mahmud Koshg'ariyning «Odob as-solihin» asarining tarbiyaviy ahamiyati
2. Dunyoviylik – dahriylik emas.
3. Komil inson tarbiyasida Koshifiy ilmiy merosining ahamiyati
4. Globallashuv va sekulyarizatsiya jarayonlari
5. Pravoslav cherkovlari diniy atrubutlar

6. Beruniy asarlarida diniy marosimlarning yoritilishi
7. Diniy ramzlarning zamonaviy talqinlari
8. Jahon dinlari ibodatxonalar arxitekturasi
9. Yurtimiz allomalarining islom ilmlariga qo'shgan xissalari
- 10.O'rta Osiyoga pravoslavlilikning kirib kelishi
- 11.O'zbekistonda shomonlikning zamonaviy ko'rinishlari
- 12.Buxoro yahudiylarining diniy marosimlari va bayramlari
- 13.O'zbekistonda konfessiyalararo diniy bag'rikenglikning tarixiy tajribasi
- 14.Universalizm va kosmopolitizm g'oyalarining yoshlar ma'naviyatiga ta'siri
- 15.Yangi diniy harakatlarning zamonaviy faoliyat uslublari
- 16.O'zbekistonda mustaqillik yillarda buyuk allomalarining ilmiy-ma'naviy merosiga e'tibor
- 17.O'zbekistondagi muqaddas ziyyaratgohlar: Hakim at-Termizi majmuasi
18. O'zbekistondagi muqaddas ziyyaratgohlar: Qaffol ash-Shoshiy maqbarasi
- 19.O'zbekistonda mustaqillik yillarda diniy ta'lif tizimida amalga oshirilgan islohotlar.
- 20.O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Karimovning diniy bag'rikenglik sohasida olib borgan oqilona siyosati.  
Mustaqil o'zlashtiriladigan mavzular bo'yicha talabalar tomonidan referatlar tayyorlash va uni taqdimot qilish tavsiya etiladi.

## **VI. Asosiy va qo'shimcha o'quv adabiyotlar hamda axborot manbalari**

### **Asosiy adabiyotlar**

1. Len Woods. Handbook of World Religions. Barbour Publishing, Ohio. 2008. – 266 p.
2. Dinshunoslik asoslari. O'quv qo'llanma / Ochildev A. va boshqalar. – Toshkent: "Toshkent islom universiteti" nashriyot-matbaa birlashmasi, 2013. – 320 b.
3. Dunyo dinlari tarixi / tuzuvchilar: S.Agzamxodjaev, D.Rahimjonov, N.Muhamedov va b. – T.: ToshDSHI, 2011. – 262 b.
4. Osnovy religiovedeniya: Ucheb./ G.T.Tulemetova, E.F. Ibragimov / Otv. red. A.A.Xasanov. – 2-e izd., pererab. i. dop. –Izd. «Toshkent islom universiteti» nashriyot-matbaa birlashmasi. 2015. – 265 s.

### **Qo'shimcha adabiyotlar**

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. –Toshkent: O'zbekiston, 2011. – 40 b.
2. Mirziyoev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016 yil yakunlari va 2017 yil istiqbollariga bag'ishlangan majlisidagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining

nutqi. // Xalq so‘zi gazetasi. 2017 yil 16 yanvar, №11.

3. 2017 – 2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha harakatlar strategiyasi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-sonli Farmoniga 1-ilova // <http://www.lex.uz>

4. Karimov I.A. Demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini shakllantirish – mamlakatimiz taraqqiyotining asosiy mezonidir. – 19-jild. – Toshkent: «O‘zbekiston», 2011.

5. Karimov I.A. Bizning yo‘limiz – demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va modernizatsiya jarayonini izchil davom ettirish yo‘lidir. – 20-jild. – Toshkent: «O‘zbekiston», 2012.

6. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma’naviyat, 2008. – 176 b.

7. Qur’oni karim ma’nolari tarjimasi. Tarjima va izohlar muallifi Mansurov A. – T.: Sharq, 2012.

8. Shermuhamedov K., Karimov J., Najmuddinov J. Diniy ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashning ma’naviy-ma’rifiy asoslari. –Toshkent: “Movarounnah”, 2016. – 224 b.

9. Ochiliev A., Najmuddinov J. Missionerlik: mohiyat, maqsadlar, oqibatlar va oldini olish yo‘llari (yuz savolga – yuz javob). –Toshkent: “Toshkent islam universiteti” nashriyot-matbaa birlashmasi, 2017. – 200 b.

10. Hillary Rodrigues, John S. Harding. Introduction to the study of Religion. Routledge, USA, 2009. – 177 p.

11. Jo‘raev T., Paxrudinov Sh. Dunyoviy davlatchilik va siyosiylashgan diniylik: azaliy muxolifat. – T.: «Akademiya», 2008. – 84 b.

12. Nizomiddinov N. Sharqiy Osiyo diniy - falsafiy ta’limotlari va Islom / Nizomiddinov N.G‘., Hasanov A. – T.: O‘zR FA davlat Adabiyot muzeyi, 2006. – 152 b.

13. Tulepov A. Islom va aqidaparast oqimlar. – T.: Sharq, 2014. – 536 b.

14. Tulepov A. Internetdagi tahdidlardan himoya: Yordamchi o‘quv qo‘llanma. Mas’ul muharrir A. Hasanov. –Toshkent: “Movarounnah”, 2016. – 672 b.

15. Hasanboev O‘. O‘zbekistonda davlat va din munosabatlari: diniy tashkilotlar, oqimlar, mafkuraviy kurashning dolzarb yo‘nalishlari. – T.: TIU nashriyot-matbaa birlashmasi, 2014. – 552 b.

## Internet saytlari

1. <http://www.religion.uz>
2. <http://www.muslim.uz>
3. <http://www.islamcenter.uz>
4. <http://www.ziyo.uz>
5. <http://www.hidoyat.uz>
6. <http://www.ziyouz.uz>